



# “ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA ILMIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2023 yil 19-20 may

Buxoro

**“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to`plami // Buxoro, 2023-yil 19-20-may. – 486 b.**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yilning 19-20 may kunlari Buxoro davlat universitetida **“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar”** mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o‘tkaziladi.

Mazkur konferensiya to’plamida bir yuz ellikdan ortiq maqolalar jamlangan.

**Tahrir hay’ati:**

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Rasulov T.H. – Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor;  
Barotov Sh.R. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Karimova V.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov A.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Nishonova Z.T. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Huseynova A.A. – Falsafa fanlari doktori, professor;  
Abdullayeva B.S. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Akramova F.A. Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;  
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;  
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor;  
Usmanova M.N. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Jumayev U.S. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Ostanov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
Rustamov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**Koordinatorlar: Nazarov A.M., Usanova M.N., Ostanov Sh.Sh.**

*Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.*

© Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar

## Уважаемые гости и участники!!

Я рад приветствовать вас на международной научно-практической конференции «**Научные исследования в современной психологии: проблемы, достижения, инновации**», в которой принимают участие ведущие ученые и специалисты Узбекистана, России, Украины, Казахстана, Кыргызстана, исследующие позитивную природу современного человека и условия оптимизации позитивного функционирования личности.

В настоящее время мы являемся свидетелями всё возрастающей актуальности психологии как науки, как сферы жизни, в которую включён каждый человек современного общества. Искусство жить в сложном и динамичном мире требует от нас умения заглянуть за грань очевидного и прикоснуться к глубинам человеческой психики.

За последние годы психология как наука сделала большой шаг вперед. В последние годы наблюдается активное развитие психологии как науки, академической и прикладной, обусловленное многообразием теоретических и практических задач, встающих перед нею. В нашей стране интерес к психологии огромен, причем практически во всех отраслях современного общества: образовании, политике, медицине, спорте, экологии, искусстве, бизнесе и др. Конечно, способствуя всему этому положительному сдвигу, вырос и круг проблем психологии.

Современная психология в Узбекистане находится на этапе становления и определения приоритетов будущего развития. В данной связи особую актуальность приобретает научная и инновационная деятельность ученых. Обращение исследователей к актуальным проблемам общества, в котором они осуществляют свою изыскательскую деятельность, поиск ответа на злободневные вопросы является неотъемлемым условием становления их научной культуры.

Узбекская земля дала стране немало блестящих ученых - психологов, которые приумножили ее славу в этой сегодня популярной и значимой в мире сфере человеческого познания. Здесь родились, получили специальное образование и сложились как профессиональные психологи - профессора: Э.Г. Гозиев, Г.Б. Шоумаров, А.С.Бегматов, Ш.Р. Баратов, А.М. Жабборов, Б.Р. Кадыров, В.М.Каримова, З.Т.Нишанова, Н.С.Сафаев, Б.М. Умаров и др.

Мы очень внимательно следим за успехами кафедры психологии нашего университета, которая получила разрешение на проведение конференции, видим её вклад в научную и общественную жизнь области и страны.

Во-первых, Журнал «**PSIXOLOGIYA**» стал первым профессиональным периодическим изданием психологов не только Узбекистана, но и заметным научным явлением на огромном географическом пространстве стран СНГ. Сегодня «**PSIXOLOGIYA**» не останавливается в своем развитии и способствует продвижению психологической науки и практики; растет его популярность не только в Узбекистане, но и за ее пределами. В апреле 2021 года журнал был зарегистрирован в (РИНЦ - Российский индекс научного цитирования) и включен национальную библиографическую базу данных научного цитирования.

В университете открыт Специализированный Совет по присуждению ученой степени (PhD) по двум специальностям: 19.00.05. - Социальная психология. Этнопсихология. и 19.00.06. – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития.

Преподаватели плодотворно сотрудничают с кафедрами психологии вузов России, Украины, Казахстана, Кыргызстана, а также со школой психологии Сассексского университета Великобритании.

Поэтому целью международной научно-практической конференции является обсуждение современных тенденций развития психологии, обмен опытом ведущих

специалистов стран ближнего и дальнего зарубежья по различным направлениям практической психологии, знакомство с новейшими методами исследования в области практической психологии, а также консолидация усилий психологов многих стран в решении актуальных задач науки и практики.

Беглый анализ заявленных секций: методология современной психологии, интегративная парадигма психологии, организация психологической службы, психология в образовании, психология в здравоохранении, психическое здоровье детей и подростков, современные психологические проблемы общественного развития, психология профессионального становления и реализации личности и т.п. позволяет убедиться, насколько разнообразнее стала тематика исследований, насколько вырос исследовательский потенциал, насколько возросла значимость решаемых практических задач. Все это говорит о том, что обмен научной информацией сейчас, как никогда важен. Именно это, прежде всего, учитывали организаторы конференции при её формировании.

Надеюсь, что данная конференция получится интересной, запоминающейся, позволяющей осознать всю глубину и масштаб социальных вызовов нового времени психологии, проанализировать результаты исследований, посвященных широкому кругу проблем,

Желаю всем участникам международной научно-практической конференции плодотворной работы, здоровья, мира и добра!

**Хамидов Обиджон Хафизович** – ректор БухГУ, доктор экономических наук,  
профессор

8. Фельдштейн Д.И. Проблемы возрастной и педагогической психологии. - М.: «Генезис», 2005. - 283с.

## O'SMIRLIK DAVRI INQOROZLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI

*Farhodova Marjona Sobir qizi,*

Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti talabasi

*Elov Ziyodullo Sattorovich*

Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti, psixologiya va sotsiologiya kafedrasи dotsenti, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada o'smirlik davri inqirozlari va uning ijtimoiy-psixologik sabablariga to'xtalib o'tilgan. Bunda o'smir shaxsining turli psixologik o'zgarishlarga qay darajada bardoshliligi va yuzaga kelgan krizisdagi holatiga misollar orqali murojaat qilingan. Hozirgi zamon psixologik xizmat amaliyoti bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotini murakkablashtiradigan qator noto'gri fikrlarning kuchayganligi bilan duch kelmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy iqtisodiy omillarning qarama-qarshi ta'sir ko'rsatish sezilarli o'rinn egalaydi. Maqolada shu kabi muammolarni bartaraf etishda psixologik yondashularnung o'rni ham yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'smir, krizis, tanqidiy davr, mustaqillik, o'zgarish, qaror, past o'zlashtirish, o'quv motivatsiyasining yo'qligi, past baholash, ishonmaslik, hissiyat, sevgi, jinoyat, tuchun cha, salbiy qarashlar, o'jarlik, negativlik.

Bugun mamlakatimizda yoshlар siyosati davlat siyosati darajasiga olib chiqilganligini barcha jarayonlarda ko'rib guvohi bo'lib turibmiz. Muhtaram Prezidentimiz faoliyatlarining dastlabki davrlaridan boshlab, yoshlар masalasiga alohida e'tibor qaratib kelayotganliklari va biz yoshlarga ajdodlarimizga munosib voris bo'lishimizni uqtirib kelyaptilar.


Shu o'rinda Yurtboshimizning "Ulug' allomalarimiz, o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtiolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to'lgan navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdoddlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak" - deb, ta'kidlagan fikrlari ayni jarayonlarning muhim o'zagidir. Inson umrining eng muhim jarayonlari va o'zgarishlari – o'smirlik davriga kuzatilishi bugungi zamonaviy psixologiyada tadqiq qilinadi.

O'smirlik inson hayotida tanqidiy davr sifatida tan olinadi. Ko'pgina ota-onalar farzandini bu «xavfli» yoshta etishi uchun tashvishlanyapti. Ular o'g'lining yoki qizining xatti-harakati qandaydir o'zgarishlarga uchrashi mumkin bo'lgan davrni bilishadi. Oilada oldindan belgilab qo'yilgan xatti-harakatlar va qarorlarni qabul qilish qoidalari eskirib qoladi va alternativ izlash kerak bo'ladi. Ko'p jihatdan, o'smir o'zining inqirozidan qanday saboq olishini bilib oladi, u qanday kishidan o'sib borishiga bog'liq bo'ladi.

Ota-onalar o'smirlik davrida qancha o'sayotganini oldindan bilishganida, bu qiyin bosqichga tayyorgarlik ko'rish osonroq bo'lar edi. Lekin, ko'pincha o'smirlar o'zlariga nima bo'lganini va nima uchun ular o'zlarini namoyon qilishlarini tuchun ishmaydi. Qizlar uchun bu 11 dan 16 yoshgacha bo'lgan inqiroz hisoblanadi. O'g'il bolalarda esa o'smirlik inqiroz 12-18 yoshda kuzatiladi. O'smir yoshidagi yosh inqirozi o'zini-o'zi himoya qilish, to'la huquqli shaxs maqomi uchun kurash kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Zamonaviy jamiyatda erkaklar mustaqillikka bo'lgan talablar yuqoriligi sababli, bolalarda o'smirlik inqirozining muammolari yanada kuchayadi.

Ayni shu kabi jarayonlar turli davrlarda tadqiqotlarning asosiy mavzusi bo'lib kelgan. Taniqli rus olimi L.S.Vigotskiy dunyo olimlarni har bir yoshning hamma xususiyatlari normal va anomal taraqqiyotining barcha asosiy tiplarini, tuzilishini, o'rganishlarini rivojlanishini o'rganishga chorlaydi. Hozirgi vaqtida psixologiyada maslahat berish amaliyoti bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotini murakkablashtiradigan qator noto'gri fikrlarning kuchayganligi bilan

duch kelmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy iqtisodiy omillarning qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi sezilarli o'rinn egalaydi. Masalan ota-onalarning ayniqsa, onalarning ish bilan bandligi, ushbu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari ko'pchilik bolalarning bolalar muassasalarida tarbiyalanishi ota-onalar psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar o'zlarining funksiyalarining bog'chalarga keyinchalik maktablarga ag'darib qo'yimoqdalar, undan tashqari ota onalarning kelishmay nizoga borishlari erta ajrimlar bola psixikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarning fikricha oilaning buzilishi bolaning ahvolini qiyinlashtirib qo'yadigan kuchlii psixologik omil bo'lib, unga ko'nikish uchun bolaga kamida ikki yil kerak bo'ladi. Xilma-xil psixologik muammolar manbalari ichida maktab ham muxim o'rinn egallaydi. Misol uchun tibbiyot tili bilan aytganda maktab yoshidagi bolalarning 15-20 % qisqa muddatli yoki doimiy psixoterapiyaga muhtoj.



1-rasm

Bugungi kunga kelib maktabda keng tarqalgan psixologik muammolar talaygina bo'lib:

- o'quv motivatsiyasining yo'qligi,
- past o'zlashtirishi,
- o'qituvchilar va tengdoshlari bilan nizoli munosabatlari,
- o'z-o'zini past baholash va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarning ko'pchiligi hozirgi maktablarda va jamiyatimizda shaxs rivojlanish bosqichlarida, ehtiyojlar va chuqr qonuniyatlarni yetarlichcha hisobga olmaslik, barcha bolalarga bir xil talab qo'yish natijasida ularning individual – psixologik va psixofiziologik xususiyatlarni hisobga olmaslik sabab bo'lmoqda. Masalan, bolaga talab qo'yayotganda uning yosh xususiyatlarini, tafakkuri qay darajada shakllanganiga qarab va uning ehtoyojlaridan kelib chiqqan holda yondashish lozim. Kasb tanlash yoshidagi maktab o'quvchilariga 9-sinfdan ularni qaysi kasbga moyilligi va yo'naltirish ishlarini maktabda psixolog yoki o'qituvchilar bajarsa uyda ota va ona o'qituvchi roliga kirishishi lozim. Bu vaqtida bola qaysi kasbni tanlashda ikkilanayotgan yoki umuman loqayd qiziqishi yo'q bir ishni nihoyatda sekin astalik bilan yondashsalar bunda bola bilan emas, balki ota onalar bilan ishlash lozim. Masalan temirchilik kasbi yo'qolib bormoqda, chunki bunga sabab kasblar o'z tashqi qiyofasini yo'tib bormoqda, avvallari portdagi yuk tashuvchi bunda hammaning ko'z o'ngida quyidagi tasavvurlar jonlanadi: egilgan odamning orqasidagi og'ir yuk, lekin, hozir zamonaviy portlarda hamma narsa mexanizatsiyalashtirilgan. Yuklovchi endi operator vazifasida. U endi texnik savodxonlikni egallashi kerakki eski tasavvurlar zamirida yangi zamonaviy tasavvurlar uyg'onadi. Kasb tanlashda boshpana tanlagandek munosabatda bo'lish zarur. Ko'pchilik o'smirlar yuqori yoki oliy toifali kasblarni mo'ljalga oladilar. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, eng yuqori pog'onaga chiqish uchun ham qadamni avvalo pastki pog'onaga qo'yish kerak. Qachonki quyi pog'onalardan ko'tarilsa shundagina yutuqqa erishiladi. Masalan kim avvalida ishchi bo'lib ishlagan bo'lsa, undan yaxshi injiner chiqadi, o'z

vaqtida bajaruvchi, o‘z ishini nozik tomonlarini bilgan shaxs, vaqtি kelib juda zo‘r rahbar bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy psixologiya o‘smirlilik davrini 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda o‘smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin, kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan holatda bo‘ladi. O‘z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» - deb, nomlagan. O‘smirlar davrida yetakchi faoliyat – bu o‘qish muloqot hamda mehnat faoliyatidir, o‘smirlilik davri muloqotining asosiy vazifasi – bu do’stlik o‘rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallahshdir. O‘smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki u to‘la o‘rtoqlik kodeksiga bo‘ysunadi.

Barkamol inqiroz faqat salbiy hodisani hisobga olmaydi. Ha, bu mustaqillik uchun kurashdir, lekin, nisbatan xavfsiz sharoitda ro‘y beradigan kurashdir. Ushbu kurash jarayonida nafaqat o‘z bilim va o‘zini-o‘zi himoya qilishda qoniqqan yosh erkak yoki qizning ehtiyojlari, balki, kattalardagi qiyin vaziyatlarni bartaraf etish uchun ishlataladigan xatti-harakatlarning modellari ham barham topadi.

Psixologiyada o‘smirlilik inqirozi ikkita diametral ravishda qarama-qarshi alomatlar bilan tavsiflanadi: qaramlik inqirozi va mustaqillik inqirozi. Ularning har ikkalasi ham har bir o‘smir o‘sib ulg’aygan joylarda ro‘y berishi mumkin, lekin ulardan biri doimo ustunlik qiladi.

1. Istiqlol inqirozi, o‘jarlik, negativlik, o‘z-o‘zini xohlash, kattalarning eskirishi va ularning talablariga, norozilik namoyishlari va mulkiy egalikga nisbatan nomaqbtlar munosabati xarakterlidir.

2. Qaramlik inqirozi, eski holatga, eski odatlarga qaytishga, xatti-harakatga, ta’mga va qiziqishlarga bog‘liq bo‘lgan haddan ortiq itoatkorlikda namoyon bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytganda, o‘smir zerikish va undan oldindan belgilangan me’yorlardan ortig’ini olishga harakat qiladi. Shu bilan birga, u kattalar unga yordam berishini kutadi, chunki o‘smir hali ham psixologik va ijtimoiy jihatdan yetarlicha yetuk emas.

Odatda o‘smirlilikdagi narkomaniya inqirozinining ustunligi ota-onalarga juda yoqadi. Bolalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lgani uchun hech qanday tahdid yo‘qligi quvonchlidir. Ammo, o‘smirning shaxsiy rivojlanishi uchun bu imkoniyat kamroq bo‘ladi. "Men farzandman va men qolishni istayman" pozitsiyasi shubha va tashvish haqida gapiradi. Ko‘p hollarda bu turdagи xatti-harakatlar insonning jamiyatda to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga to‘sqinlik qilishda davom etadi.

Jahon psixologlarini tadqiqot natijalari quyidagi ma’lumotlarni tavsiflashga imkon beradi. Ilk o‘spirin yigitlar do’stlashishida 75-85% tengdoshini, 15-18% katta yoshdagilarni, 1-7% kichik yoshda bo‘lishni ma’qul ko‘radilar. Ilk o‘spirin yoshidagi qizlarga esa olingan ma’lumotlar o‘zgacha xususiyatga ega. Ular 50-60% tengdoshlari bilan 40-50% katta yoshdagilar bilan kichik yoshdagilar bilan do’stlashmaslikini afzal ko‘radilar.

Psixologlarning talqiniga qaraganda buning barchasi ulardagи ideal do’stlik haqidagi tuchun chalarning turli-tumanligi bilan bo‘qliq ekanligi ta’kidlanadi. Biroq, ilk o‘spirinlik davridagi do’stlikning eng muhim xususiyatlardan biri shuki ular o‘z do’stining ijtimoiy o‘rniga psixologik xususiyatlariga, hayotiy ustanovkalariga asoslangan holda tanlab olmaydilar. O‘spirinlik yoshidagi do’stlik ko‘pincha butun umr bo‘yi davom etadi. O‘spirinlik yoshidagi bir his sevgi paydo bo‘ladi. Bu maktab o‘quvchisining emotsional hayotida yangi bir holat hisoblanadi. O‘spirinlik sevgisi sof, pokiza, beg’ubor xilma-xil kechimnalarga boy muloyim xayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo‘ladi. Yigit va qizlarimizning sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do’stlik, o‘zaro yordam, bir-birini tuchunish kabi xislatlar xarakterli bo‘lib, ular bir-birlaridagi yuksak ma’naviy sifatlarini qadrlaydilar.

### **Adabiyotlar.**

1. Н.Тайлоқов. Вояга етмаганларга ўртасида суицид ҳолатларини олдини олиш. Методик қўйланма. Тошкент 2017
2. Х.Рухиева. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар ва суицид ҳолатлари профилактикаси. Ўқув қўйланма. Тошкент 2021